

“Soliqchi-tadbirkorga ko'makchi”



“Soliqchi-tadbirkorga ko'makchi”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-apreldagi 19-sonli videoselektor yig'ilishida Davlat soliq qo'mitasi Moliya vazirligi bilan hamkorlikda mahalliy ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ularning mahsulotlarini davlat xaridlari tizimiga keng jalb etish, ularning umumiy xaridlaridagi ulushlarini kamida 2 baravarga oshirish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilgan bo'lib, So'x tumanida Tuman davlat soliq inspeksiyasi “Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash” sho'basi mas'ul xodimlari hamda tuman G'aznachilik bo'limi xodimlari bilan hamkorlikda “Soliqchi-tadbirkorga ko'makchi” tamoyili asosida tumanda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari manzillariga tashrif buyurgan holda yoki masofadan turib soliq maslahatlari berilib, tadbirkorlik subyektlarining tovar xom-ashyo birjalaridan davlat xaridlari tizimida ishtirok etish uchun akredatsiyadan o'tishlarida amaliy yordamlar berilib, mazkur tizimda yaratilgan qulayliklar hamda tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar haqida ma'lumotlar berilmoqda.

Ma'lumot uchun tovar xom-ashyo birjalaridan davlat xaridlari tizimida ishtirok etish uchun akredatsiyadan o'tishda openid.uzex.uz saytidan foydalaniladi.

Davlat soliq xizmati tadbirkorlik faoliyatingizning ishonchli hamkori!

A.A.Atayev - So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi

“Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash” sho'basi

davlat soliq bosh inspektori